

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

UMAROVA MALIKA BAXTIYAROVNA

**O‘ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the Doctogal (DSc) Dissegation Abstgact

Umarova Malika Baxtiyarovna

О‘zbekistonda banklarni transformatsiyalash uslubiyotini takomillashtirish..... 3

Умарова Малика Бахтияровна

Совершенствование методологии трансформации банков в Узбекистане.....33

Umarova Malika Bakhtiyarovna

Improvement of the methodology of bank transformation in Uzbekistan65

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 70

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

UMAROVA MALIKA BAXTIYAROVNA

**O‘ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.DSc/Iqt352 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyo Net" axborot-ta'lim portali (www.ziyounet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Kalomov Muxiddin Baxritdinovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Ismoilov Alisher Agzamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Jumayev Nodir Xosiyatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "10" 07 soat 10⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (167 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" 06 kuni tarqatildi.

(2025-yil "26" 06 daqiqa 57 raqamli reyestr (taqdimot) nomnomasi).



S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda transformatsiya jarayoni banklarning raqobatbardoshligini oshirish, ularning faoliyatini globalashtirish va mijozlarga yuqori sifatli xizmatlar taklif qilishda muhim ahamiyatga ega. Moliya bozorining globalashuvi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va mijozlar talablarining o'zgarishi banklar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Juniper Research ma'lumotlariga ko'ra, "2026-yilga kelib, dunyo aholisining 53 % raqamli bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi; bu 2021-yilda 2,5 milliard foydalanuvchidan boshlangan holda, 4,2 milliarddan ortiq raqamli bank foydalanuvchilariga yetadi. Unda pandemiya davrida banklarning samarali ishlashi uchun raqamli transformatsiyalash jarayonlarining rivojlanishi raqamli bankning samaradorligini asoslaydi va foydalanuvchilar o'sishini rag'batlantiradi"¹. Shuningdek, banklarni transformatsiyalashda bankning tashkiliy tuzilmasini qayta shakllantirish, xizmatlari ko'lamini kengaytirish maqsadida yangi xizmat turlarini joriy etish hamda aholi uchun qulay xizmat turlarini taqdim etish, banklarni transformatsiyalash uslubiyotini takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon amaliyotida bank infratuzilmasini raqamli va innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirish, bank xizmatlari ommabopligini oshirish borasida kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlar banklarni transformatsiyalash jarayonida yangi xizmat turlarini joriy etishning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, bank tizimini isloh qilish doirasida davlat ishtirokidagi banklarni transformatsiya qilish, banklarning zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etishga qaratilgan ishlar bilan bog'liq qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, banklarning kapitallashuv darajasi va resurs bazasini oshirish, banklar uchun belgilangan prudensial me'yorlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat ulushi mavjud banklarni xususiyashtirishga tayyorlash va transformatsiyalash yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida "davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo'lgan investorlarga tanlov asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarini bir vaqtning o'zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish"² kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu tadqiqot ishida bank boshqaruvining shaffofligini oshirishda yangi talablar asosida banklarning tashkiliy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish va uni shakllantirish, transformatsiyalash jarayonida bank xizmatlari ommabopligini oshirish, mijozning kreditga layoqatliligini tahlil etishda

¹ Juniper Research "Digital Banking: Banking-as-a-Service, Market Transformation & Forecasts 2021–2026".

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-son farmoni.

omnikanalli bankingdan foydalanish, banklarning transformatsiyalash uslubiyotini yanada rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 12-maydagi PF–5992-son “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 23-martdagi PQ–3620-son “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 9-oktabrdagi PQ–4487-son “O‘zbekiston Respublikasi bank sektorining moliyaviy barqarorligini oshirishga oid birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2017-yil 12-sentabrdagi PQ–3270-son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni davlat dasturida hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Banklarni transformatsiyalash jarayonida bank infratuzilmasini rivojlantirish hamda bank xizmatlari samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar jahondagi bir qator yetakchi ilmiy markazlar va nufuzli oliy ta‘lim muassasalari, xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan olib borilgan. World Bank, Bank of America Corporation, JP Morgan, Harvard University (AQSH), Asian Development Bank (Filippin), Central American Bank for Economic Integration (Gonduras), London School of Economics and Political Science (LSE), European Bank for Reconstruction and Development, University of Oxford, University of Cambridge, “Ernst & Young” (EY), Price water house Coopers (PwC), Klynveld Peat Marwick Goerdeler (KPMG), University of Hong Kong (Gonkong), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi (O‘zbekiston) singari oliy o‘quv yurtlari shular jumlasidan.

Dunyoda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida banklarni

³ The International Monetary Fund (IMF), Annual Geport on Building a Shared Future (Washington, D.C., April 30, 2018.); Friedman, B.M. (2001). “Monetary Policy”. International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences. pp. 9976–9984.; “The wogld’s 100 laggst banks”. Standard & Poor. April 6, 2018; Basel Committee on Banking Supervision. www.bis.ogg.; Hubbard, Douglas (2009). The Failure of Gisk Management: Why it is Broken and How to Fix It. John Wiley & Sons. p. 46; Yakov Amihud and Haim Mendelson, “Asset Pricing and the Bid-Ask Spread”. Journal of Financial Economics 17, 1986; Mueller, Jim. “Understanding Financial Liquidity”. Investopedia.com. Investopedia US. Archived from the original on 2 May 2018; International Finance Corporation (IFC), Annual Geport on Gedifining Development Finance, World Bank Open Data 2018; <https://data.wogldbank.ogg>; <https://www.jpmmoggan.com/global>.

transformatsiyalash uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy-amaliy natijalar olingan. Jumladan, Massachusetts Institute of Technology (MIT) Sloan School of Management (USA) banklarning raqamli transformatsiyasi va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha; Harvard Business School (USA) bank sektoridagi strategik o'zgarishlar va transformatsiya jarayonlari bo'yicha; London School of Economics and Political Science (LSE) (UK) bank xizmatlarini rivojlantirish va daromadlarni oshirish bo'yicha; Frankfurt School of Finance & Management (Germany) bank innovatsiyalari, operatsion samaradorlik va bank sektorida mijozlar tajribasini yaxshilash strategiyalari bo'yicha; INSEAD (France/Singapore) bank biznes modellari, raqamli bank transformatsiyasi va daromadlilikni optimallashtirish bo'yicha; National University of Singapore (NUS) Business School (Singapore) Osiyo mintaqasida banklarning transformatsiyasi va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha; Stanford Graduate School of Business (USA) texnologiya va innovatsiyalarning bank xizmatlari, mijozlarni jalb qilish va daromadlilikni oshirishga ta'siri bo'yicha; Swiss Finance Institute (Switzerland) bank xizmatlarini transformatsiya qilish, xavflarni boshqarish va moliyaviy muassasalarda daromadlilikni oshirish uchun innovatsiyalardan foydalanish bo'yicha; University of Melbourne rivojlanayotgan mamlakatlarda banklarni transformatsiya qilish va joriy etish jarayonlari bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan.

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, shuningdek, nufuzli xalqaro moliya-kredit tashkilotlari tomonidan banklarni transformatsiyalashning nazariy-metodologik, uslubiy va moliyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: an'anaviy bank tizimini o'zgartiradigan innovatsion biznes-modellar yaratish, banklarni transformatsiyalashda bank xizmatlarini diversifikatsiyalash, banklarni transformatsiyalashda mamlakatlar normativ-huquqiy bazasini o'zaro solishtirma tahlil qilish, masofadan xizmat ko'rsatish tizimini xalqaro to'lov tizimlariga integratsiyalash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash uslubiyotini takomillashtirish orqali bank xizmatlari ommabopligini oshirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Banklarni transformatsiyalash uslubiyotini takomillashtirish, transformatsiyalash jarayonida bank infratuzilmasini rivojlantirish, masofadan xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, bank xizmatlari ommabopligini oshirish masalalari bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar qator izlanishlar olib borishgan. Mazkur yo'nalishda, ayniqsa, Yu.S. Tverdoxleb, Y.A. Shumpeter, Ye.F. Jukova, D. Bekker, A.A. Paskova, A.Ya. Dolgushina, I.L. Avdeeva, N.I. Kulikov, Yu.V. Kudryavseva, A.N. Azriliyan, Brett King, M. Samuels, V. Rijkov, A.A. Kulinich, A.A. Gontar, John Ginovsky, A.V. Muravyeva, L.A. Petrova, Hussain S., Yizhe Dong, Steven Fgies, Anita Taci, John H. Leusneg, John J. L.V.Kox, X. Ma, Ch.Men,

D. Yan, X. Van, P. Vayl, S. Vorner, T.G. Bondarenko⁴ kabi olimlar chuqur tadqiqotlar o‘tkazishgan.

Shuningdek, bank tizimi, bank xizmatlari ommabopligini oshirish, banklarda masofadan turib xizmat ko‘rsatish, xizmat ko‘rsatish sohasiga sun‘iy intellektni joriy etish, transformatsiyalash sharoitida raqamli banklarni rivojlantirishga doir tadqiqotlar N.G‘. Karimov, A.Q. Qodirov, O.A. Aliqoriyev, F. Mirzayev, Sh.Z. Abdullayeva, T.I. Boboqulov, T.M. Qoraliyev, A.A. Omonov, O.B. Sattorov, S.A.

⁴ Твердохлеб, Ю. С. Предпосылки трансформации традиционных кредитно-финансовых учреждений в цифровые банки: прикладные зарубежные исследования / Ю. С. Твердохлеб, С. Г. Тер-Петросян // *Банковские услуги*. – 2021. – № 5. – С. 33–39; Шумпетер Й. А. Теория экономического развития (1983); Е.Ф. Жукова. Деньги. Кредит. Банки (2003); Е.Ф. Жуков, Н.М. Зеленкова, Л.М. Максимова и др.; под редакцией академика РАЕН Е.Ф. Жукова. – 600 с.; *Банковское дело*. Под ред. проф. О.И. Ловрушина. – М.: «КноРус», 2016. – С. 800; Кулинич А.А. Интернет–банкинг как составляющая развития сетевой инфраструктуры // *Экономическая стратегия и перспективы развития сферы торговли и услуг: сб. науч. тр.* Харьков: ХДУХТ, 2011. Вып. 2 (14). – С. 421–429; Авраменко О. М. Интернет–банкинг: особенности и перспективы развития банковской системы // *Экономика: проблемы теории и практики: сб. науч. тр.* Днепропетровск: ДНУ, 2010. С. 707–712; Кравченко Д. *Мировые тенденции в мобильном банкинге* (2014); Gontar A.A. Digital banking as one of the components of the economic security of a credit organization // *Bulletin of the Volzhskiy University im. VN. Tatishcheva; John Ginovsky What really is «digital banking» // Banking exchange.* <http://www.bankingexchange.com/blogs-3/making-sense-of-it-all/item/5187>; Муравьева, А.В. *Банковские инновации: мировой опыт и российская практика: дис. на соиск. канд. экон. наук.* / А.В. Муравьева. – М., 2005. – 137 с.; Радковская, Н.П. *Методология финансового менеджмента и управления прибылью кредитных организаций: автореф. ... д-ра экон. наук // Научная библиотека диссертаций и авторефератов [Электронный ресурс].* – URL: <http://www.dissercat.com/content/metodologiya-finansovogo-menedzhmenta-i-upravleniya-gibylyu-kreditnykh-organizatsii#ixzz5gcjZptYO> (дата обращения: 07.03.2019); Петрова, Л.А. *Цифровизация банковской системы: цифровая трансформация среды и бизнес-процессов / Л.А. Петрова, Т.Е. Кузнецова // Финансовый журнал.* – 2020. –Т. 12, № 3. – С. 91 – 101; Deloitte Development LLC. (2022). *Banking Outlook. Accelerating the transformation.* www.deloitte.com/about; Гальпер М.А. *Трансформация банка в условиях глобальной неустойчивой среды. Диссер. на соис. учен. степ. канд. экон. наук по спец. 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит.* Санкт-Петербург – 2020. – 19 стр.; Hussain S. *Bank transformation practices around the operation, maintenance monitoring, and chaos engineering.* <https://medium.com/cloud-believers/banktransformation-practices-around-the-operation-maintenance-monitoring-and-chaosengineering-c7e958745815>; Шашкина Е.О. *Влияние финансовых технологий на трансформацию банковского сектора экономики: зарубежный и отечественный опыт. Диссер. на соис. учен. степ. канд. экон. наук по спец. 5.2.4. Финансы.* Москва – 2022. – 35-36 стр.; Бубнова, Ю.Б. *Развитие экосистем – основной тренд трансформации банковского бизнеса / Ю.Б. Бубнова // Известия Байкальского государственного университета.* – 2020. – № 3. – С. 394 – 401; Белова, С.С. *Современные трансформации российского банковского сектора в контексте цифровизации / С.С. Белова // Инновации. Наука. Образование.* – 2021. – № 30. – С. 1240 – 1244.; *Global Banking Annual Review 2023: The Great Banking Transition October 10, 2023 | Report McKinsey’s Global Banking Annual Review 2023 | McKinsey*; Жуков Е.Ф. *Рынок ценных бумаг.* 2009. «ЮНИТИ-ДАНА». – С. 597; *Финансы: учебник / А.Г. Грязнова, Е.В. Маркина, М.Л. Седова и др.; под ред. А.Г. Грязновой, Е.В. Маркиной* 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2012. – 496 с.; Кох Л.В. *Инновации в банковском бизнесе / Л.В. Кох, Е.Н. Смольянинова, В.С. Просалова.* – Санкт-Петербург: Изд-во Политехнического ун-та, 2009. – 490 с.; Серебренникова А.И. *Сущность и проблемы внедрения инноваций в банках. //Банковское дело.* 2020. № 1. – С. 68–73; Соколинская Н.Э. *Механизмы информационного и нанотехнологического обеспечения инноваций в банковской сфере в условиях цифровой экономики. //Банковское дело.* 2020. № 2. – С. 25–30; Ма Х., Мэн Ч., Ян Д., Ван Х. *Цифровая трансформация Китая.* – М.: Альпина Паблшер, 2019. – 249 с.; Вайл П., Ворнер С. *Цифровая трансформация бизнеса.* – М.: Сбербанк; Альпина Паблшер, 2019. 215; Гуриц Дж.С., Ньюджент А.Ф., Халпер Ф., Кауфман М.А. *Просто о больших данных.* – М.: Эксмо, 2015. – 400 с.; *Designing a sustainable digital bank” Learning from the digital pioneers-IBM Sales and Distribution White Paper Executive Summary // Copyright IBM Corporation 2015.* – P. 3. <https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taqaqiyoti-garovidi>; Савдерево А.Ф., Журова Д.В. *Тенденции и перспективы развития интернет–банкинга в России // Вестник Чувашского университета, №4, 2013 г.,* – С. 395–399; Бондаренко Т.Г., Белоцерковский В.И. *Становление интернет–банкинга мировой опыт развития // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки.* 2012 г., – С. 579-585;

Abdullayeva, M.B. Mo‘minova, N.E. Jiyanova, Z.T. Mamadiyarov, M.Q. Maxmudova⁵ kabi mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan.

Ta’kidlash joizki, banklarni transformatsiyalash uslubi-yotini takomillashtirish masalalari yuqorida nomlari keltirilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida yaxlit va kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Aynan mazkur holat dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsadi va vazifalarini belgilashga asos sifatida xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy-tadqiqotlari rejasiga muvofiq, FZ-5421033210-sonli “Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining metodologik asoslari” mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda banklarning transformatsiyalash uslubi-yotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

banklarni transformatsiyalash uslubi-yotiga doir iqtisodchi olimlarning nazariy va ilmiy qarashlarini tadqiq qilish hamda mualliflik yondashuvi ishlab chiqish;

banklarni transformatsiyalash jarayonida banklarning joriy holatini o‘rganish;

banklarni transformatsiyalash jarayonida masofadan xizmat ko‘rsatish amaliyotini tahlil qilish;

mamlakatimizda valyuta ayirboshlash jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishga doir yondashuvlar ishlab chiqish;

bank xodimlari va mijozlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma tahlili asosida banklarga raqamli texnologiyalar joriy etishni ilmiy asoslash;

banklarni transformatsiyalash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini tadqiq qilish;

mamlakat bank tizimiga innovatsion bank xizmatlarini joriy etish orqali bank xizmatlari ommabopligini oshirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

⁵ Karimov N.G‘. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari. Doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2008; Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. Doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2000; Omonov A.A “Bank kapitalini samarali boshqarish masalalari”. Iqt. fan. dok... dissertatsiya avtoreferati. – T, 2004. – 36-b; Sattorov O.B. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dok... diss. Avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 32-b.; Mamadiyarov Z.T. Banklarni transformatsiya qilish sharoitida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish: nazariya, amaliyot va xorij tajribasi. Monografiya. –T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, (2021). – 188-b.; F.Mirzayev, O‘zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning konseptual asoslari. I.f.d. ilm. dar. ol.uch. diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – 70-b.; Jiyanova N.E. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini samarali boshqarish yo‘nalishlari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 2010; Abdullayeva S.A. Tijorat banklari to‘lov qobiliyatini mustahkamlash yo‘llari. Iqt. fan. nom...diss. avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 24 b.; Mo‘minova M.B. Tijorat banklari aktiv va passiv operatsiyalarini innovatsion boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dok...diss. avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 31 b.; Aliqoriyev O.F. Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqt. fan. nom...diss. avtoreferati. – Toshkent, 2011. – 28 b.; Boboqulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlash: muammolar va yechimlar. –T.: «Fan va texnologiya», 2007. –B. 184; M.Q.Mahmudova Banklarni transformatsiyalashuvida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. dok...diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 38 b.;

O‘zbekistonda banklarni transformatsiyalash uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini banklarni transformatsiyalash uslubiyotini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida guruhlash, tarkibiy yondashuv, qiyosiy tahlil, miqdoriy tahlil kabi usullardan keng foydalanildi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalarining statistik, ekspert va kombinatsiyalashgan tahlillarini baholash maqsadida iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlashtirish usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “banklarni transformatsiyalash” tushunchasining iqtisodiy mazmuni institutsional o‘zgarishlarni o‘z ichiga oluvchi tashkiliy tuzilmani modernizatsiyalash, moliyaviy operatsiyalar, texnologiyalar, xizmat ko‘rsatish usullarini diversifikatsiyalash natijasida banklar raqobatbardoshligini oshirish orqali moliya bozori samaradorligiga hissa qo‘shuvchi tizim nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

tijorat banklarida jismoniy shaxslarning valyuta ayirboshlash jarayonida Touch ID dan foydalanish asosida 100 dollardan oshiq mablag‘larni ayirboshlashda shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport) talab etmagan holda, barmoq izidan foydalanish tartibini kiritish orqali valyuta ayirboshlash operatsiyalarini ma‘lumotlar bazasida saqlash, valyutaga bo‘lgan davriy talabni baholash va prognoz qilish imkonini yaratish taklifi asoslangan;

tijorat banklarida tizimli, xususiy va kobeyjing kartalari orqali to‘lov o‘tkazmalari jarayonida pul mablag‘larini firibgarlik ta’sirlari ostida yo‘qotish ehtimoli vujudga kelgan holatda “antifrod” tizimidan foydalanish asosida tranzaksiyalar xavfsizligini ta’minlash orqali pul mablag‘larining noqonuniy o‘zlashtirish darajasini 30–50 % oralig‘ida qisqartirish taklifi asoslangan;

mahalliy to‘lov tashkilotlarini xalqaro to‘lov tizimlariga integratsiyalash imkonini beruvchi bank infratuzilmalarini rivojlantirish asosida milliy va xalqaro valyutadagi to‘lov o‘tkazmalarini amalga oshirish vositalarini diversifikatsiyalash orqali to‘lovlar uzluksizligini ta’minlash taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda tijorat banklarining yuqori likvidli aktivlar hajmi ARIMA modeli asosida tasodifiy ekzogen va endogen omillarini hisobga olmagan holda, 2029-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

“an’anaviy bank”, “raqamli bank”, “internet bank”, “banklarni transformatsiyalash” tushunchalarining iqtisodiy mohiyati ochib berilgan;

banklarni transformatsiyalash jarayoniga ta’sir etuvchi makro, mikro, mezo omillar, shuningdek, iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, siyosiy, kiber xavflarning ta’siri tahlil etilgan;

valyuta ayirboshlash jarayonida mijozlarni identifikatsiyalash orqali ularning shaxsini tasdiqlash, valyuta ayirboshlash jarayonining shaffofligini oshirish va yashirin iqtisodiyotning oldini olishga doir takliflar ilmiy asoslangan;

banklar tomonidan mobil ilovalar orqali ko'rsatiladigan xizmat turlari ko'lamini kengaytirish, mobil ilovalarda sun'iy intellektdan foydalangan holda, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish ilmiy asoslangan;

banklarni transformatsiyalash uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha mualliflik yondashuvi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchligi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning banklarni transformatsiyalash uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha ilgari surgan ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish; ilg'or xorijiy tajribani chuqur o'rganish; normativ-huquqiy asoslarni tahlil qilish va umumlashtirish; ekspert baholari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, boshqa amaliy ma'lumotlar hamda statistik hisobotlar asosida ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar O'zbekistonda bank tizimini rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlarni ishlab chiqish, hamda banklarni transformatsiyalash jarayonlariga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, erishilgan xulosa va tavsiyalardan bank sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida bank faoliyatiga oid fanlarni o'qitish, o'quv dasturlari, qo'llanmalar, darsliklar tayyorlash, shuningdek, 2022–2026-yillarda yangi “O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” hamda “Raqamli O'zbekiston-2030 strategiyasi”da ko'rsatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda banklarni transformatsiyalash uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra, “banklarni transformatsiyalash” tushunchasining iqtisodiy mazmuni institutsional o'zgarishlarni o'z ichiga oluvchi tashkiliy tuzilmani modernizatsiyalash, moliyaviy operatsiyalar, texnologiyalar va xizmat ko'rsatish usullarini diversifikatsiyalash natijasida banklarning raqobatbardoshligini oshirish orqali moliya bozori samaradorligiga hissa qo'shuvchi tizim nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy ta'lim muassasalari 60410500 – “Bank ishi va auditori” ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Investitsion banklar” nomli darslik tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 27-dekabrda 446-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun “banklarni transformatsiyalash” tushunchasining iqtisodiy mazmuni hamda bank tizimidagi ahamiyati bo'yicha yanada kengroq nazariy bilim va ko'nikmalar hosil qilishda uslubiy asos bo'lgan;

tijorat banklarida jismoniy shaxslarning valyuta ayirboshlash jarayonida Touch ID dan foydalanish asosida 100 AQSH dollaridan oshiq mablag'larni ayirboshlashda shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport) talab etmagan holda, barmoq izidan foydalanish tartibini kiritish orqali valyuta ayirboshlash operatsiyalarini ma'lumotlar bazasida saqlash, valyutaga bo'lgan davriy talabni baholash va prognoz

qilish imkonini yaratish taklifi “Mikrokreditbank” Aksiyadorlik tijorat bankining 2025-yilgacha rivojlantirish strategiyasi bo‘yicha ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi”ga kiritilgan (“Mikrokreditbank” ATBning 2024-yil 24-sentabrdagi 05-16/26447-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Mikrokreditbank” Aksiyadorlik tijorat bankida 172 ta valyuta ayirboshlash shoxobchalari faoliyat ko‘rsatib, 2024-yil davomida valyuta ayirboshlash shoxobchalar orqali 151,2 mln AQSH dollari sotilgan hamda 202,5 mln AQSH dollari miqdorida xorijiy valyuta mablag‘lari xarid qilish imkoniyati yaratilgan;

tijorat banklarida tizimli, xususiy va kobeyjing kartalari orqali to‘lov o‘tkazmalari jarayonida pul mablag‘larini firibgarlik ta’sirlari ostida yo‘qotish ehtimoli vujudga kelgan holatda “antifrod” tizimidan foydalanish asosida tranzaksiyalarning xavfsizligini ta’minlash orqali pul mablag‘larining noqonuniy o‘zlashtirish darajasini 30–50 % oralig‘ida qisqartirish taklifi “Mikrokreditbank” Aksiyadorlik tijorat bankida amaliyotga joriy qilingan (“Mikrokreditbank” ATBning 2024-yil 24-sentabrdagi 05-16/26447-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning “Mikrokreditbank” Aksiyadorlik tijorat banki tomonidan amaliyotga joriy etilishi 2023-yilda mazkur tijorat bankida xizmat nuqtalari sonini 574 taga, xizmat turlari sonini 102 taga yetkazish imkonini bergan;

mahalliy to‘lov tashkilotlarini xalqaro to‘lov tizimlariga integratsiyalash imkonini beruvchi bank infratuzilmalarini rivojlantirish asosida milliy va xalqaro valyutadagi to‘lov o‘tkazmalarini amalga oshirish vositalarini diversifikatsiyalash orqali to‘lovlar uzluksizligini ta’minlash taklifi Aksiyadorlik tijorat “Xalq banki” 2026-yilgacha rivojlantirish strategiyasi bo‘yicha ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi”ga kiritilgan (AT “Xalq banki”ning 2025-yil 25-apreldagi 24-25/1294-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida turistlar, mahalliy aholi, migrantlar to‘lov o‘tkazmalari, valyutani konvertatsiyalash, xaridlarni xalqaro kartalarda to‘lov ilovalari yordamida amalga oshirish imkoni yaratilgan;

O‘zbekistonda tijorat banklarining yuqori likvidli aktivlar hajmi ARIMA modeli asosida tasodifiy ekzogen va endogen omillarini hisobga olmagan holda, 2029-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanishga doir taklif AT “Xalq banki” faoliyatiga joriy etilgan (AT “Xalq banki”ning 2025-yil 25-apreldagi 24-25/1294-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2029-yilgacha tijorat banklarida yuqori likvidli aktivlar hajmining 181 189,20 mlrd so‘mga yetishi prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 10 ta respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 11 ta maqola, jumladan, 10 ta mahalliy va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 234 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan; dissertatsiya ishining mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan; ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining **“Tijorat banklarini transformatsiyalashning nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida an'anaviy bank tizimidan raqamli bank tizimiga o'tishning nazariy va metodologik asoslari tadqiq qilingan.

Bank tizimi rivojlanishiga nazariy jihatdan yondashadigan bo'lsak, an'anaviy bank xizmatlari ko'rsatish modeli 1920-yildan shakllana boshlagan bo'lib, bu davr 2006-yilgacha davom etdi. 2006-yildan bank xizmatlari ko'rsatishning raqamli modeliga bosqichma-bosqich o'tildi. Ushbu o'zgarishlar, asosan, bank axborotlarini raqamlashtirish, mijozlarga bank xizmatlari ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, shuningdek, internet-banking tizimining shakllanishi bilan chambarchas bog'liq.

Har ikkala yondashuv ham o'z afzalliklariga ega. Ko'plab zamonaviy banklar mijozlar tajribasini yaxshilash uchun an'anaviy va raqamli usullarni birlashtirishga intilmoqda. Bozorda muvaffaqiyatli raqobatlashish uchun mijozlar ehtiyojini hisobga olish va bank sohasida innovatsiyalarga intilish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

Banklarni transformatsiyalash mijozlar bilan ishlash tajribasini to'liq o'rganish va mavjud talabni tahlil qilish hamda yangi ehtiyoj va talabni aniqlash orqali bank siyosatini o'zgartirishga olib keladi. Aynan bank xizmatlari iste'molchilari banklarning innovatsion rivojlanishida harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi, chunki ular o'z ehtiyojlarini ifodalash orqali zamonaviy bank mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantiradi.

Mijozlar bank xizmatidan foydalanganda, ularning xizmat ko'rsatish sifati, tezkorligi hamda turlariga ko'ra baho beradi. Shuning uchun bank sektori mijozlar bilan ishlash tajribasini doimiy ravishda o'rganishi, xodimlar ishidagi kamchiliklarni aniqlashi, mijozlarning talabidan kelib chiqqan holda, yangi xizmat turlari joriy etishi kerak, chunki yangi mijozlar zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, ilg'or xizmat ko'rsatish usullarini talab qilishi mumkin.

Banklarda transformatsiyalash jarayonida ichki tartib-qoidalarni o'zgartirish ham bank sektorini raqamli rivojlantirishning muhim shartidir. Raqamli va mijozlarga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, boshqaruv, rahbarlik, nazorat tizimlarini takomillashtirish hamda kiberxavfsizlik darajasini oshirish zarur. Banklarning to'liq raqamlashtirishga o'tishidagi asosiy to'siqlardan biri – bu raqamli iqtisodiyotda ishlash uchun zarur ko'nikmaga ega xodimlarning yetishmasligidir.

Banklarni transformatsiyalash strategiya ishlab chiqish va qo'llashga asoslangan kompleks yondashuvlar talab qiladi. Banklarni transformatsiyalash moliya tizimining barcha jabhalari, shu jumladan, banklarni boshqarish mexanizmlarini qamrab oladi. Shuning uchun maksimal samaradorlikka erishish uchun bank sektorini transformatsiyalash boshqa rivojlanish strategiyalari bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi lozim. Banklarni transformatsiyalash strategiyasi to'rtta asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak:

- raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- xizmatlar narxini shakllantirish jarayonini o'zgartirish;
- raqamlashtirishning moliyaviy jihati;
- tashkiliy strukturani o'zgartirish.

Banklarni transformatsiyalash strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yuqorida aytib o'tilgan rivojlanish yo'nalishlarini muvofiqlashtirish zarur bo'lib, bu ko'p jihatdan bankning operatsion modeliga bog'liqdir.

Mijozlarni ushlab qolish va yangi mijozlarni jalb etish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va oxir-oqibat banklarni mijozlar uchun yanada jozibador qilish – bularning barchasi banklarning transformatsiyalash natijasidir. Tizimning raqamlashtirilishi tufayli mijozlar bank xizmatlaridan 24/7 davomida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, bank xarajatlarining kamayishi individual bank mahsulotlari narxlari pasayishiga olib keladi.

Bank tizimini transformatsiyalash avtomatlashtirish darajasini oshiradi, operatsiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartiradi, ma'lumotlar tahlilini yaxshilaydi, bu esa mijozlar va xodimlar bilan o'zaro aloqani rivojlantiradi. Shuningdek, mahsulotlar va xizmatlar sifati oshishiga ham olib keladi.

Banklarni transformatsiyalash, odatda, bir necha bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Joriy holatni baholash orqali bank o'z rivojlanish strategiyasini qayta ishlab chiqish, yangi xizmat turlarini joriy etish, bankning iqtisodiy salohiyatini baholash, infratuzilmaning joriy holati, integratsiyalashgan tizimlar va texnologiyalarini tahlil qiladi.

2. Raqamli texnologiyalarni joriy etish bosqichida banklar bulutli texnologiyalar, Big Data ma'lumotlar bazasi, xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlilida sun'iy intellektdan foydalanish va boshqa innovatsion raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etishni boshlaydilar.

3. Xodimlarni tayyorlash banklarni transformatsiyalashni samarali amalga oshirishda asosiy dastak hisoblanadi. Transformatsiyalash jarayonida raqamli texnologiyalar bilan ishlay oladigan malakali kadrlar, jumladan, data tahlilchilar, HR menejerlar, marketologlar va ekonometrikarni tayyorlash hamda ularni o'qitish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

4. Monitoring banklarni transformatsiyalash natijalarini kuzatib borish, ma'lumotlarni tahlil qilish hamda muvaffaqiyatli transformatsiyalashni amalga oshirish jarayonlarini optimallashtiradi.

5. Rivojlanish va transformatsiyalash jarayoni doimiy va uzluksiz bo‘lib, banklarning raqobatbardoshligini oshirishda banklarni zamonaviy infratuzilma bilan ta‘minlash, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini rivojlantirish va bank strategiyalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi.

1-jadval

“Banklarni transformatsiyalash” tushunchasiga doir berilgan ta‘riflar⁶

Muallif	Ta‘rif
Rossiya Aloqa va kommunikatsiyalar vazirligi	Biznesni keng qamrovli o‘zgartirish yangi biznes modellari va mijozlar bilan aloqa kanallariga muvaffaqiyatli o‘tish, yetkazib beruvchilar, mahsulotlar, biznes-ishlab chiqarish jarayonlari, korporativ madaniyatni raqamli texnologiyalar asosida yangilash orqali ma‘lumotlarni boshqarishga yangi yondashuvlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.
Stolterman E., Croon F. A. (2004)	Bu – boshqaruv tizimining tubdan o‘zgarishidir. Raqamli transformatsiya (DT yoki DX) strategiyalar, modellar, operatsiyalar, mahsulotlar, marketing yondashuvlari va maqsadlarni qayta belgilash orqali raqamli texnologiyalarni joriy etish asosida amalga oshiriladi.
Bekker D. (2018)	Bu subyektiv fikrlaydigan “aqli” mashinalar tarmog‘iga (ya‘ni juda murakkab birliklar) selektiv birlashma jarayonidir.
Proxorov A., Konik L. (2019)	Forrester – raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, operatsion samaradorlik va tezkorlikka erishish; Gartner – biznes modeli bo‘lib, qiymat yaratish va daromad olishga imkon beradi; Deloitte – ulanishlarning eksponensial o‘sishi; Altimeter Group – har qanday aloqa nuqtasida mijozlarni jalb qilish.
Paskova A.A. (2020)	Bu doimiy o‘zgarish jarayoni kompaniya ekotizimining barcha ishtirokchilari, jumladan, xodimlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar va hamkorlar faoliyatini ilg‘or biznes texnologiyalari asosida optimallashtirishga qaratilgan.
SAP Insights (2021)	Mijozlar tajribasi, biznes modellari va operatsion jarayonlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish – bu qiymat yaratishning yangi usullarini joriy etish, daromad va samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategik yondashuvdir.
Samuels M. (2021)	Raqamli texnologiyalarning barcha biznes sohalariga integratsiyalashuvi kompaniyaning ish jarayonlaridagi fundamental o‘zgarishlarga olib keladi.
AWG (2021)	Raqamli texnologiyalarning biznesning barcha sohalariga integratsiyalashuvi kompaniya faoliyatida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu esa operatsion strategiya va ish yuritish usullarini takomillashtirish hamda mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilashga olib keladi.
Rijkov V. (2022)	Bu raqamli muhitda samarali ishlay oladigan yangilangan model yaratish uchun biznesni moslashtirish jarayonidir. Texnologik sikl – bu strategik boshqariladigan jarayon bo‘lib, biznesni raqamli iqtisodiyot muammolariga moslashtiradi.

Ilmiy-nazariy yondashuvlardan kelib chiqqan holda, mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi: **“Banklarni transformatsiyalash – bu bankning biznes modeli, operatsiyalari, texnologiyalari va mijozlarga xizmat ko‘rsatish usullarini yangilash jarayoni bo‘lib, banklarning raqobatbardoshligini oshirish, samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi”**. Banklarni transformatsiyalash yordamida bank xizmatlarini avtomatlashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish, moliyaviy inklyuzivlikni rivojlantirish, shuningdek, moliyaviy ma‘lumotlarni tahlil qilish orqali strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi.


Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarini transformatsiyalashning joriy holati tahlili va uni rivojlantirish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida banklarni transformatsiyalash jarayonining

⁶ Ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda muallif ishlanmasi.

amaldagi holati tahlil qilingan. Ushbu bobda, shuningdek, banklarda xizmat koʻrsatish sifatini oshirishda bank infratuzilmalarini rivojlantirish, banklarga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalalari yoritilgan hamda muallif tomonidan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Oʻzbekiston moliya bozorining eng rivojlangan ishtirokchilaridan biri – bu bank tizimidir. Bugungi kunda mamlakatimizda banklarni transformatsiyalash va davlat ulushlarini bosqichma-bosqich kamaytirishda xorijiy investorlarni jalb etish, shuningdek, xorij moliya korporatsiyalari yordamida transformatsiyalash jarayonlarini olib borish maqsadida bir qator yirik moliya tashkilotlari va tahlilchilar bank tizimiga jalb qilingan.

2023-yilda davlat ishtirokidagi korxonalar, shu jumladan, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, investitsiyaviy jozibadorligi hamda operatsion samaradorligini oshirish, ularni xususiylashtirishga tayyorlash va bank tizimiga strategik investorlarni jalb qilish borasida “Oʻzsanoatqurilishbank” ATBning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari qabul qilindi.




1-rasm. Tijorat banklari kapitali va aktivlari daromadliligi tahlili (foizda)⁷

“Ipoteka-bank” ATIBdagi davlat ulushining kamayishi, tijorat banklarining kapitallashuv darajasi oshishi hamda bank xizmatlari bozoriga 3 ta yangi bankning kirib kelishi jami bank sektori aktivlaridagi davlat ulushining 2022-yildagi 78 foizdan 68 foizgacha, jami bank kapitalidagi ulushining esa 78 foizdan 65 foizgacha pasayishiga xizmat qildi.

⁷ <https://new.openinfo.uz> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Transformatsiyalash olib borilayotgan tijorat banklarining xususiy kapital rentabellik darajasi tahlil qilinganda, “Ipoteka bank”da bu ko‘rsatkich 10,81 %, “Milliy bank”da 9,62 %, “Mikrokreditbank”da esa 0,09 %ni tashkil etmoqda. Aktivlar rentabelligi “Ipotekabank”da 1,72 %, “Milliybank”da 1,35 % va “Mikrokreditbank”da 0,02 % ko‘rsatkichga ega. “Mikrokreditbank”da yuzaga kelgan mavjud moliyaviy holatning asosiy sababi sifatida bank kredit portfelida muammoli kreditlar NPL ulushining 6,7 % ga yetgani ko‘rsatilmoqda, bu esa bankning aktivlar sifati va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.




2-rasm. Banklarning sof foydasi va daromaddagi ulushi tahlili⁸

Bozordagi daromad ulushi bo‘yicha “Milliy bank” yetakchilik qilmoqda va uning ulushi 16,20 %ni tashkil etadi. Undan keyin “Agrobank” 13,16 % bilan ikkinchi o‘rinda turadi. Eng kichik ulush esa Mikrokreditbank (2,16 %) va Turonbank (1,33 %) hissasiga to‘g‘ri keladi. Umuman olganda, davlat banklarining jami daromaddagi ulushi 67,21 %ni, xususiy banklarniki esa 32 %ni tashkil etmoqda.

2023-yilda bankomatlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmida Humo bankomatlarining ulushi 2020-yilda 17,4 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 88,4 trln so‘mga yetib, 2022-yilda 33 foizdan 47 foizgacha oshgan. Uzcard bankomatlarining foizdagi ulushi 40 foizgacha oshib, 76,6 trln so‘mni tashkil etgan (3-rasm).


Mahalliy to‘lov tizimlari orqali valyutani konvertatsiya qilish, kobeyjing, Visa, Master card xalqaro to‘lov kartalariga pul o‘tkazmalarini amalga oshirish imkoniyati mijozlar uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratadi. Bu ilovalar orqali foydalanuvchilar o‘tkazmalarni 24/7 rejimda amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

⁸ <https://new.openinfo.uz> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



3-rasm. Bankomatlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar (trln so‘m)⁹

Tadqiqot davomida tijorat banklari xodimlari va mijozlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bank mijozlari o‘z vaqtini samarali taqsimlashni istaydi. Buning uchun banklardagi mavjud kutishlar, hujjatlashtirishdagi qog‘oz to‘ldirish va tushunmovchiliklar ularning bank tizimidan to‘laqonli qoniqmasligiga sabab bo‘lmoqda.



4-rasm. Bank mijozlarining valyuta ayirboshlashdan maqsadlari to‘g‘risidagi fikrlari (foiz hisobida)¹⁰


Respondentlarning bir oyda o‘rtacha qancha miqdorda valyuta ayirboshlashi haqidagi savolga javoban, har to‘rtinchi respondent (41,9 %) 100 dan 500 AQSH dollarigacha bo‘lgan miqdordagi valyutani almashtirishini bildirgan.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi. www.cbu.uz

¹⁰ So‘rovnoma natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Respondentlarning 25,2 foizi esa 100 dollargacha bo‘lgan valyutani almashtirishini ma’lum qilgan.

Respondentlarning valyuta ayirboshlash paytida yonlarida pasport bo‘lmagandan keyingi xatti-harakatlari tahlil qilinganda, ularning 38,1 foizi qayta ovora bo‘lib, o‘z pasportlarini olib kelgani, 19,2 foizi valyutani boshqa shaxs nomiga rasmiylashtirgani, 16,9 foizi esa valyutani qora bozordan almashtirishga majbur bo‘lganini ta’kidlashgan. Shu bilan birga, 18,8 foiz bank mijozlari, o‘z navbatida, valyuta ayirboshlamasdan banklardan ketishiga to‘g‘ri kelgan.



5-rasm. Bank mijozlarining valyuta ayirboshlash paytida pasport bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risidagi fikrlari (foiz hisobida) ¹¹

Pasport bilan bog‘liq muammolardan tashqari, fuqarolar tomonidan banklarda valyuta ayirboshlashda navbatlar hosil bo‘lishi ham muammo sifatida qayd etildi.

Valyuta ayirboshlash jarayonida pasport taqdim etish o‘rniga barmoq izini skanerlash amaliyotini joriy etishni aksariyat fuqarolar qo‘llab-quvvatlashi ma’lum bo‘ldi.

2-jadval

Bank xodimlari va mijozlarining barmoq izini skanerlash amaliyotini joriy etishga bo‘lgan munosabati (foiz hisobida) ¹²

Barmoq izini skanerlash amaliyotini joriy etishga munosabatingiz?	Bank mijozlari	Bank xodimlari
	%	%
To‘liq qo‘llab-quvvatlayman	60,3	55,2
Qo‘llab-quvvatlayman	16,5	27,1
Unchalik qo‘llab-quvvatlamayman	9,2	5,5
Umuman qo‘llab-quvvatlamayman	6,8	2,3
Menga farqi yo‘q	4,1	6,8
Javob berishim qiyin	3,1	3,2

¹¹ So‘rovnoma natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹² So‘rovnoma natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Tahlillar bank mijozlarining 76,8 foizi, bank xodimlarining 82,3 foizi yangi amaliyotni joriy etish tarafdori ekanligini ko'rsatdi. Bu tizimga qarshi bo'lganlar esa bank mijozlarida 16,0 foiz va bank xodimlarida esa 7,8 foizni tashkil etdi (2-jadval).

Bank mijozini identifikatsiya qilish tartib-taomillariga biometrik ma'lumotlarning joriy etilishi nafaqat amalga oshirilayotgan tranzaksiyalarda shaxsni tasdiqlashni ta'minlaydi, balki moliyaviy firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash va kibertahdidlar xavfini sezilarli darajada pasaytiradi. Shu bilan birga, axborot resurslariga kirish huquqini beruvchi parollar hujjatlarning yo'qolishi va qalbakilashtirilishi xavfini kamaytiradi.

Biometrik texnologiyalardan foydalangan holda, banklar "KYC (Know Your Customer) – o'z mijozingni bilasanmi" tamoyili asosida faoliyat yuritadi.

An'anaviy banklarning biometrik texnologiyalarga bo'lgan qiziqishining asosiy sabablaridan biri – bu mijoz identifikatsiyasidir. Bunga qo'shimcha ravishda, FinTech provayderlarining raqobat bosimi va mijozlarning istalgan joy va istalgan vaqtda bank xizmatlaridan foydalanish istagi ham bu texnologiyalarga ehtiyojni oshirmoqda. So'nggi o'n yilliklarda moliya bozorida an'anaviy moliya vositachilari o'rni bosuvchi texnologiya kompaniyalari jadal rivojlanib bormoqda. Ushbu kompaniyalar bank ishining landshaftini o'zgartirib, bank tizimi va texnologiyalarning o'zaro integratsiyalashuv jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.


Bir qator mamlakatlarda biometrik identifikatsiyalash tizimini bank to'lov tizimlariga samarali joriy etish bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Goode Intelligence tomonidan tayyorlangan "Moliyaviy xizmatlar uchun mobil biometrika: bozor va texnologiyalar tahlili, 2018–2023-yillar uchun strategiya va prognozlar" nomli hisobotda 2023-yilga kelib, har yili 1,67 trillion AQSH dollaridan ortiq mobil biometrik to'lovlar amalga oshirilishi, mobil biometrik texnologiya provayderlari esa 8,7 milliard AQSH dollaridan ortiq daromad olishi prognoz qilingan. 2020-yilda 1,1 milliarddan ortiq mijoz moliyaviy xizmatlarda biometrik identifikatsiyadan foydalangan. Shimoliy Amerika, Yevropa, Afrika, Lotin Amerikasi mintaqalarida mobil ilovalar orqali biometrik to'lovlarni amalga oshirish darajasi past sur'atlarda kechayotgan bo'lsa, Xitoy, Hindiston va Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi boshqa mamlakatlarda esa bu jarayon yuqori sur'atlarda oshib bormoqda.

Umuman olganda, biometrik identifikatsiyalashning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular orasida Face ID, secured touch, ko'z shoh pardasi yordamida identifikatsiyalash, qon tomirlari joylashuviga qarab mijozni identifikatsiyalash faol qo'llanadi. Barmoq izi orqali shaxsni identifikatsiyalash, ya'ni Touch ID tizimi keng tarqalgan.

Bugungi kunda mamlakatimiz banklari tomonidan mijozni identifikatsiyalashda Face ID, Touch ID tizimlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Biz tomondan valyuta ayirboshlash jarayoniga mijozni identifikatsiyalashda Touch ID tizimini amaliyotga joriy etish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida valyuta ayirboshlash operatsiyalaridan tashqari, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida qo'llanadigan yangi texnologiyalar ham o'rganib chiqildi. Bundan ko'zlangan maqsad tijorat banklarida bank xizmatlarini ko'rsatish maqsadida mijozlarni aniqlashda qo'llanadigan zamonaviy texnologiyalarni o'rganishdan iborat bo'ldi. Tadqiqotda Toshkent shahrida joylashgan 12 ta tijorat banki

faoliyati o‘rganildi, ammo bu yerda faqat biometrik identifikatsiya vositalaridan foydalanadigan banklar kiritilgan.



6-rasm. Biometrik identifikatsiyalash turlaridan foydalanish kesimi¹³

Tadqiqot davomida tijorat banklari ikkita identifikatsiya usulidan foydalanishi aniqlandi: barmoq izi datchigi (barmoq izi skaneri) va yuz skaneri. Shu bilan birga, skanerlashda bank davlat ma’lumotlarni qayta ishlash markaziga ham, o‘zining mijozlar bazasiga ham kirishi mumkin.

Ayni paytda o‘rganilganlar orasida tijorat banklari biometrik identifikatsiyadan faqat kreditlash xizmatlari ko‘rsatish, omonatlarni boshqarish va pul o‘tkazmalarida foydalanadi. Quyida tadqiqot davomida o‘rganilgan banklar va texnologiyalarning to‘liq ro‘yxati keltirilgan.

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasining ayrim tijorat banklarida qo‘llanadigan yangi texnologiyalar¹⁴

1. “Orient Finance bank” (katta pul o‘tkazmalari jo‘natish uchun)	barmoq izi skaneri
2. “Turon bank” (depozitdan pul mablag‘lari chiqarish uchun)	barmoq izi skaneri
3. Asaka bank (kredit olish va ariza topshirganda);	yuz skaneri
4. “Ipoteka bank” (IN-App aniqlash uchun)	yuz skaneri
5. “Xalq banki” (omonat ochish uchun)	barmoq izi skaneri
6. “TBC bank” (Ilovada identifikatsiya qilish uchun)	yuz skaneri

Bugungi kunda mamlakatimizda bank tizimidagi mavjud islohotlar natijasida keskin va samarali o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Biroq yuqoridagi tahlillarimizning isboti sifatida hali-hanuz tijorat banklari orasida innovatsion yangiliklarni keng qamrovli jalb qilib ulgurmagan banklar ham mavjud. Shiddatli iqtisodiy o‘zgarishlar davrida har sohada bo‘lganidek, bank tizimida ham yangicha yondashuvlar mijozlar talabiga aylanmoqda.

¹³ http://www.techpogtal.gu/glossagy/biometgicheskaya_identifikaciya.html ma’lumotlaridan foydalangan holda muallif ishlanmasi.

¹⁴ <https://xb.uz>, <https://tbcbank.uz/gu>, <https://www.asakabank.uz/>, <https://tugonbank.uz/gu/>, <https://ofb.uz/uz/> ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Dissertatsiyaning “**Tijorat banklarini transformatsiyalashning ilg‘or xorij tajribasi**” deb nomlangan uchinchi bobida taraqqiy etgan mamlakatlar, jumladan, AQSH, Germaniya va Rossiya bank tizimi, banklarni transformatsiyalash jarayonlari, raqamli bank tizimiga o‘tish bosqichlari tahlil qilingan va mamlakatimizdagi tijorat banklari amaliyotiga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

“The Boston Consulting Group” ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoyda elektron tijoratning yuqori darajada rivojlanayotgani e’tiborni tortmoqda. Bunda Xitoyning elektron tijorat aylanmasi 18 milliard dollarni tashkil etib, ushbu davrda xitoylik iste’molchilar internet sotib olish uchun taxminan 750 milliard dollar sarflaydi, bu AQSH va Buyuk Britaniya ko‘rsatkichlarini birga qo‘shib hisoblagandan ham ko‘proq. Umuman, Xitoy Savdo vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-yil oxirigacha mamlakatning xalqaro elektron tijoratdagi ulushi 39,2 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, mamlakatda 2016–2020-yillarda qabul qilingan tarmoqni rivojlantirish dasturiga muvofiq, elektron tijorat hajmi 5 yil ichida 5,8 trln AQSH dollariga yetdi. “McKinsey & Company” instituti taxminlariga ko‘ra, 2025-yilga kelib, raqamli texnologiyalar Xitoy yalpi ichki mahsulotining 22 foiz, Rossiya uchun esa 34 foizgacha oshishiga olib keladi. 2025-yilgacha AQSHda raqamli texnologiyalarning yaratilishidan kutilayotgan xarajatlar 1,6-2,2 trillion AQSH dollari darajasiga yetishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.

4-jadval

Rivojlangan davlatlarda banklarning transformatsiyalash holatlari tahlili¹⁵

Bank nomlari	Umumiy o‘xshashliklar	Farqlar
BBVA	– raqamli yechimlarni amaliyotga joriy etish;	– banklarda firibgarlik holatlarini kamaytirish;
Société Générale	– banklarni raqamli transformatsiyalash jarayonida mijozga yo‘naltirilgan xizmatlar sifatini oshirish;	– ta’lim muassasalari bilan hamkorlik
Deutsche Bank	– texnologik innovatsion kompaniyalar bilan hamkorlik;	Microsoft bilan hamkorlik kelishuvi innovatsion texnik yechimlar manbayi sifatida
JPMorgan Chase	– elektron hujjat aylanmasiga o‘tish;	– Fintex-startaplarni rivojlantirish uchun korporativ muhit yaratish;
HDFC	– banklarda firibgarlik holatlarini kamaytirish;	– korporativ raqamlashtirish uchun alohida javobgar jamoa ajratish;
DBS Bank	– eng yirik oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik	– ichki raqamli transformatsiya xabini yaratish;
Banco Itaú Unibanco S.A.		– transformatsiyalash sharoitida raqobatdoshlikni muntazam baholash
		Barcha xizmatlarni bankning raqamli platformasiga birlashtirish
		Autsorsingdan bosqichma-bosqich voz kechish
		Mijoz bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash

¹⁵<https://www.jpmorganchase.com/ig/annual-gepogt>, <https://www.dbs.com/default.pag>, <https://www.db.com>, <https://www.hdfcbank.com>, <https://www.itau.com/>, <https://www.societegenerale.com> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Xorijiy banklarning raqamlashtirish borasidagi yondashuvlari natijasiga ko‘ra, dunyoning yirik banklari transformatsiyalash jarayonida strategik maqsadlar sirasiga malakali kadrlarni jalb qilish va uni qayta tayyorlashda oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshirish, Fin Tech kompaniyalari bilan aloqa o‘rnatish, mijozga yo‘naltirilgan xizmatlarga alohida e’tibor qaratish va startap loyihalarni amalga oshirish kiritilgan.

Xorij tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida tijorat banklari muhim rol o‘ynamoqda. Shuningdek, tijorat banklarining likvidligini maksimal darajada oshirish hamda ular o‘rtasidagi raqobat muhitini faollashtirish orqali bank faoliyatini transformatsiya qilish va raqamli iqtisodiyot ko‘lamini kengaytirish zarurati tobora ortib bormoqda.

5-jadval


Raqamli o‘zgarishlar sharoitida jahonda banklarning transformatsiyalash bosqichlari¹⁶

Yillar	Tavsifi
2007-yil	Jismoniy filial tarmog‘iga ega bo‘lmagan birinchi muqobil banklarning paydo bo‘lishi: Tinkoff, Fidor, Simple
2009-yil	Chakana bank xizmatlarida mobil ilovalardan foydalanishning boshlanishi
2010-yil	Betterment tomonidan bank sohasida birinchi robot-maslahatchi yaratilishi
2012-yil	Bank mahsulotlarida bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi
2014-yil	Apple Pay’ning ishga tushirilishi mobil ilovalar yordamida to‘lov tizimlariga pul o‘tkazmalarini amalga oshirish imkoniyatini kengaytirdi, bu esa bozorda PayPal, Android Pay, Samsung Pay, WeChat Pay kabi yangi raqobatchilarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi MasterCard va Visa kartalari bo‘yicha operatsiyalarning umumiy hajmidan bir necha baravar ko‘p.
2014-yil	Ant Financial – dunyoda birinchi moliyaviy innovatsion ekotizim yaratdi.
2016-yil	Alexa ovozli yordamchisi Capital One bank mahsulotlarini taqdim etish funksiyasini joriy etdi.
2020-yil	Avstraliya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish jarayonida bank cheklaridan foydalanish amaliyotidan voz kechilgan.
2022-yil	Jismoniy bank filiallariga yiliga tashriflar soni 1 tagacha kamaytirildi.
2025*	Faqat mobil bankingdan foydalanadigan foydalanuvchilar sonini 3 milliard kishiga yetkazish
2026 *	Rivojlangan mamlakatlarda jismoniy filiallar sonini ikki baravar kamaytirish
2030*	Dunyoning 10 dan ortiq mamlakatlarida to‘liq naqd pulsiz to‘lovlarga o‘tish

Xorij mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, banklarni transformatsiyalash jarayoni amalga oshirilgandan so‘ng mijozlarga xizmat ko‘rsatish kanallarini o‘zgartirish, mijoz ma’lumotlarini jamlash, tahlil qilish va har bir mijozga yo‘naltirilgan xizmat turlarini ishlab chiqish zaruriyatga aylanadi.

Bank xizmatlari samaradorligini oshirishda asosiy e’tibor zamonaviy texnologiyalar yordamida bank xizmatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Bugungi kun talablari esa banklarga raqamli bankingni joriy etish, masofaviy bank xizmat turlarini kengaytirish, shuningdek, bank infratuzilmasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda, samarali xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi.

¹⁶ Muallif tomonidan Bret King V. Bank 4.0: Новая финансовая реальность. – М.: ОлимпБизнес, 2018. – 453 с. – М.: OlimpBiznes (2012) ma’lumotlari asosida shakllantirilgan.



7-rasm. Tranzaksiyon antifrodning ishlash mexanizmi¹⁷

Banklarda masofadan xizmat ko'rsatish, kartadan kartaga pul o'tkazmalari, mobil ilovalar hamda elektron hamyonlar orqali tranzaksiyalarni amalga oshirish tizimlari takomillashgan sari moliyaviy mablag'lar xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Aholi mablag'lari xavfsizligini ta'minlash va firibgarlik (frod) holatlarining oldini olish bank tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bank ilovalari va tranzaksiya operatsiyalari bo'yicha kiberhujumlar sonining ortishi bank xarajatlarining keskin ko'payishi, kutilmagan moliyaviy yo'qotishlar va mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchining pasayishiga olib kelmoqda. Bu holat banklar tomonidan pul o'tkazmalari xavfsizligini ta'minlash uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Tijorat banklarida

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tizimli, xususiy va kobeyjing kartalari orqali amalga oshiriladigan to'lov o'tkazmalari orasida pullarni firibgarlik yo'li bilan o'zlashtirish holatlari aniqlanganda, tranzaksiyalar xavfsizligini ta'minlash hamda frod holatlarining oldini olish orqali bank mablag'lari himoya qilinadi va umumiy moliyaviy barqarorlik saqlab qolinadi (7-rasm).

Birinchi bosqichda pul o'tkazmalari, valyuta ayirboshlash operatsiyalari, xaridlar, xalqaro pul o'tkazmalari, geografik joylashuv va operatsiya bajarilgan vaqt kabi barcha ma'lumotlar maxsus bazaga kiritiladi. Shuningdek, assotsiatsiya qoidalari ishlab chiqiladi, ya'ni odatdan tashqari katta miqdordagi to'lovlar yoki qisqa vaqt ichida bir nechta to'lovni amalga oshirishga urinish kabi holatlar firibgarlik sxemalari bilan mos kelganda, ushbu ma'lumotlar tahlil qilinadi va mijoz mablag'larini himoya qilish maqsadida bloklanadi. Ushbu mablag'larni bloklash orqali ularni o'zlashtirish holatlari kamayishiga erishiladi.

Hozirda tijorat banklari o'z mijozlariga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, yuqori texnologiyalarga ixtisoslashgan xizmat turlari yaratish va bir vaqtning o'zida xizmatlar tannarxini kamaytirish maqsadida yangi imkoniyatlar qidirmoqda. Bu yo'nalishda banklar turli strategiyalar ishlab chiqib, bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etmoqda. Ayrim banklar ofis xizmat ko'rsatish tarmoq sohalarini, jumladan, an'anaviy operatsiyalarni masofadan turib amalga oshirish imkonini beruvchi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali kengaytirishga e'tibor qaratayotgan bo'lsa, boshqalar esa xizmat ko'rsatishning onlayn shakllarini afzal ko'rmoqda.

Dissertatsiyaning "**Tijorat banklarini transformatsiyalash uslubiyotini takomillashtirish**" deb nomlangan to'rtinchi bobida banklarni transformatsiyalash sharoitida bank tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishda infratuzilmani rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etishning uslubiyotini takomillashtirish, banklarda omnikanalli bankingdan foydalanish, raqamli texnologiyalar, shuningdek, kanallararo infratuzilmani rivojlantirish istiqbollari bayon etilgan.

Tadqiqot bo'yicha ma'lumotlar ko'p omilli vaqtli qatorlar asosida shakllangani uchun ekonometrik tenglamalar ishlab chiqishda ko'p omilli chiziqli regression (LS) modeli qo'llandi.

Ekonometrik tenglamalarni ishlab chiqishda tijorat banklarini transformatsiyalash jarayonida moliyaviy samaradorlikni oshirishga ta'sir etuvchi o'zgaruvchilarni baholash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda jami kuzatuvlar soni 43 ta oylik ko'rsatkichlaridan iborat ma'lumot manbalaridan foydalanildi. Shuningdek, ko'p o'lchovli regressiya (LS) modeli Gauss-Markov shartlari ko'rib chiqildi hamda Durbin-Watson, Shapiro-Wilk va Breusch-Pagan kabi ishonch testlari yordamida statistik ahamiyatlilik darajasi baholandi.

Ekonometrik model bo'yicha barcha o'zgaruvchilar quyida keltirilgan:

tijorat banklari yuqori likvidli aktivlar ko'rsatkichi – *loghigh_liquid_asset* (bog'liq o'zgaruvchi);

tijorat banklari masofadan foydalanuvchilar soni – *logremote_serv* (mustaqil

o'zgaruvchi);

tijorat banklari tranzaksiyalar hajmi – *logvol_transac* (mustaqil o'zgaruvchi);

bir yilgacha bo'lgan o'rtacha tortilgan depozit stavkasi – *logweghted_depos_1* (mustaqil o'zgaruvchi).

Tadqiqot bo'yicha ko'p omilli chiziqli regression (LS) modeldan foydalangan holda, tijorat banklari yuqori likvidli aktivlari va unga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tenglamalari ishlab chiqildi (6-jadvalga qarang).

6-jadval

Tijorat banklari yuqori likvidli aktivlari va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha regression tenglama ko'rsatkichlari¹⁸

<i>loghigh_liq_asset</i>	<i>Coef.</i>	<i>St.Err.</i>	<i>t-value</i>	<i>p-value</i>	<i>[95% Conf</i>	<i>Interval]</i>	<i>Sig</i>
<i>logremote_serv</i>	.404	.111	3.62	.001	.178	.629	***
<i>logvol_transac</i>	.54	.309	1.75	.088	-.085	1.165	*
<i>logweghted_depos1</i>	.948	.448	2.12	.041	.042	1.855	**
<i>Constant</i>	3.268	1.097	2.98	.005	1.05	5.486	***
<i>Mean dependent var</i>		11.055	<i>SD dependent var</i>			0.404	
<i>R-squared</i>		0.748	<i>Number of obs</i>			43	
<i>F-test</i>		38.686	<i>Prob > F</i>			0.000	
<i>Akaike crit. (AIC)</i>		-8.229	<i>Bayesian crit. (BIC)</i>			-1.185	

$$\text{loghigh_liq_asset} = 3.26 + 0.40\text{logremote_serv} + 0.54\text{logvol_transac} + 0.94\text{logweghted_depos1} \quad (1)$$

Natija. Tijorat banklarida masofadan xizmat ko'rsatishdan foydalanuvchilar sonining 1 % ga oshishi natijasida yuqori likvidli aktivlar ko'rsatkichi o'rtacha 0.40 % ga ortadi. Tranzaksiyalar hajmining 1 % ga ko'payishi yuqori likvidli aktivlar ko'rsatkichining 0.54 % ga o'sishiga zamin yaratadi. Shuningdek, bir yilgacha bo'lgan muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasining 1 % ga ortishi tijorat banklarining yuqori likvidli aktivlar ko'rsatkichining 0.94 % ga oshishiga olib keladi.

Biz tijorat banklarini transformatsiyalashda moliyaviy samaradorlikni oshirish maqsadida 2025–2029-yillar uchun *ARIMA* modeli asosida prognoz ko'rsatkichlar ishlab chiqdik.

Ekonometrik tadqiqotni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (<https://www.cbu.uz/>) ma'lumotlaridan foydalangan holda, 2020–2024-yillardagi bank tizimida yuqori likvidli aktivlar hajmi 55 ta oylik kuzatuvdan iborat ko'rsatkich asosida prognoz qilindi.

Ekonometrik tadqiqot bo'yicha prognozlashda *ARIMA* modeli ishlab chiqishda turli variantlardan foydalangan holda, optimal modellari tanlandi; *ARIMA* (1, 1, 1), *ARIMA* (2, 1, 1), *ARIMA* (1, 1, 2), *ARIMA* (2, 1, 2), *ARIMA* (2, 2, 2) va *ARIMA* (2, 0, 2) ko'rinishidagi modellardan foydalanildi. Bular orasida *ARIMA* (2, 1, 2) modeli eng yaxshi natija ko'rsatdi (7-jadvalga qarang).

¹⁸ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

ARIMA (2, 1, 2) modeli ekonometrik tenglama ko'rsatkichlari¹⁹

<i>D.high liq asset</i>	<i>Coef.</i>	<i>St.Err.</i>	<i>t-value</i>	<i>p-value</i>	<i>[95% Conf</i>	<i>Interval]</i>	<i>Sig</i>
<i>Constant</i>	126.704	857.908	1.48	.094	-414.764	948.172	*
<i>L</i>	-1.523	.126	-12.12	0	-1.769	-1.277	***
<i>L2</i>	-.772	.106	-7.31	0	-.98	-.565	***
<i>L</i>	1.64	.237	6.91	0	1.175	2.105	***
<i>L2</i>	1	.263	3.81	0	.485	1.515	***
<i>Constant</i>	299.608
<i>Mean dependent var</i>		127.130	<i>SD dependent var</i>			2872.697	
<i>Number of obs</i>		54	<i>Chi-square</i>			290.365	
<i>Prob > chi2</i>		.	<i>Akaike crit. (AIC)</i>			1092.966	

*** $p < 0.01$, ** $p < 0.05$, * $p < 0.1$

$$\Delta Y_t = \alpha + \phi_1 \Delta Y_{t-1} + \phi_2 \Delta Y_{t-2} + \theta_1 \epsilon_{t-1} + \theta_2 \epsilon_{t-2} + \epsilon_t \quad (3)$$

6-jadvalga ko'ra, ARIMA (2, 1, 2) modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

$$\Delta \text{high_liq_asset}_t = 126.70 - 1.52 \Delta \text{high_liq_asset}_{t-1} - 0.77 \Delta \text{high_liq_asset}_{t-2} + 1.64 \epsilon_{t-1} + 299.60 \cdot \epsilon_{t-2} + \epsilon_t \quad (4)$$

ARIMA (2, 1, 2) modeli asosida tijorat banklarining yuqori likvidli aktivlar hajmi bo'yicha 2025-yildan 2029-yilgacha bo'lgan davr uchun tasodifiy o'zgaruvchilar ta'sirini hisobga olmagan holda, prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (8-jadvalga qarang).


2025–2029 yillar mobaynida tijorat banklari yuqori likvidli aktivlar hajmining prognoz ko'rsatkichlari (mlrd so'mda)²⁰

<i>Yillar</i>	<i>Pessimistik prognoz</i>	<i>Optimistik prognoz</i>	<i>Prognoz</i>
2025	117 660,60	123 406,00	120 533,30
2026	132 746,10	138 491,50	135 618,80
2027	147 921,90	153 667,30	150 794,60
2028	163 117,10	168 862,50	165 989,80
2029	178 316,50	184 061,90	181 189,20

Natija. ARIMA (2, 1, 2) modeli asosida olingan prognoz natijalariga ko'ra, tijorat banklarining yuqori likvidli aktivlar hajmi 2024–2029-yillar davomida tasodifiy ekzogen va endogen omillar hisobga olinmagan holda, quyidagi miqdorlarga yetishi kutilmoqda: 2025-yilda 120 533,30 mlrd so'm, 2026-yilda 135 618,80 mlrd so'm, 2027-yilda 150 794,60 mlrd so'm, 2028-yilda mos ravishda 165 989,80 mlrd so'm hamda 2029-yil 181 189,20 mlrd so'm.

¹⁹ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

²⁰ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.



8-rasm. 2020–2024 yillar davomida natijaviy omil hamda 2025–2029 yillar uchun prognoz grafiği²¹


8-rasmda tijorat banklarining yuqori likvidli aktivlar hajmi hamda prognoz ko‘rsatkichlari keltirilgan. Unga ko‘ra, ushbu tijorat banklari yuqori likvidli aktivlar hajmi yo‘naltirilgan grafik tasviri va kelgusi besh yil uchun prognozning ishonchligini ta‘minlaydi. Tasvir bo‘yicha ikkala chiziqning maksimal darajada yaqinligi istiqbolda mazkur prognoz ko‘rsatkichining ishonchli ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–5992-sonli farmoniga asosan, bank tizimi ommabopligini oshirish, bank sektorida davlat ulushini kamaytirish, bank tizimini isloh qilishda xorijiy mamlakatlarning transformatsiya qilish tajribasiga asoslangan holda, bank tizimini yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Bank xizmatlarining hududiy qamrovini oshirish, aholining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida davlat ishtirokidagi 3 ta bankda (“Milliy bank”, “Agrobank”, “Mikrokreditbank”) davlat ulushi saqlab qolinadi.

Mamlakatimizda “Ipotekabank”, “Sanoatqurilishbank”, “Turonbank”, “Agrobank” ATB, “Aloqabank” ATB, “Asaka bank” ATBda transformatsiyalash jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda bank faoliyatini xalqaro moliya institutlari ko‘magida transformatsiya qilish, ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalari paketini strategik investorlarga sotish orqali bankni xususiylashtirish ko‘zda tutilgan.

²¹ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.



9-rasm. Banklarni transformatsiyalash uslubiyoti²²

²² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, O‘zbekistonda banklarni transformatsiyalash jarayoni tijorat banklarida tizimli o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bank kapitallashuvi darajasining oshishi, bankka xorijiy investorlarning jalb etilishi xalqaro standartlarga mos ravishda bank tizimini o‘zgartirishni talab etadi.

Biz transformatsiyalash jarayoni uslubiyotini uch bosqichga ajratdik. Birinchi bosqich – bu bank boshqaruv tizimini transformatsiyalash orqali bankning tashkiliy tuzilmasini qayta shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichda xorijiy ekspertlarni boshqaruv tizimiga jalb etish, boshqaruvda shaffoflikni oshirish va bank tomonidan o‘z rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish zarurati yuzaga chiqadi.

Banklar transformatsiyasi jarayonida avval faoliyat yuritgan bo‘limlar, xodimlar va boshqaruv tizimi yangi transformatsiyalash jarayoniga mos ravishda qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Shu munosabat bilan bankning yangi tuzilmasini shakllantirish, zarur yangi bo‘limlar tashkil etish, bankning normativ-huquqiy hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ichki strukturaviy o‘zgarishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi bosqichda biz banklarni transformatsiyalash jarayonida tashkiliy tuzilmani takomillashtirishni taklif etdik. Ma’lumki, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yetuk mutaxassislar ishtirokiga bevosita bog‘liq. Shunga ko‘ra, bank tizimiga malakali kadrlarni jalb etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, yirik ma’lumotlar bazalari bilan ishlaydigan tahlilchilar, bankning moliya bozoridagi nufuzini oshirish va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim strategik qarorlar ishlab chiqishda faol ishtirok etuvchi marketologlar, xodimlarni ishga qabul qilish, malakasini oshirish, o‘quv kurslari tashkil etish va kadrlar malakasini oshiruvchi HR menejerlar, shuningdek, yangi startap loyihalarni bankka jalb etish, xizmat turlarini diversifikatsiyalashda xizmat qiluvchi konsultant xodimlarni jalb etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Uchinchi bosqichda biz raqamli xizmatlarni takomillashtirishni taklif etdik. Banklarni transformatsiyalash an’anaviy bank tizimida mavjud xizmat turlarini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatishda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishni talab etadi. Ma’lumki, dunyoda yuz bergan Covid-19 pandemiyasidan so‘ng banklar o‘z xizmat turlarini diversifikatsiyalash ishlarini amalga oshirdilar. 2020-yildan boshlab bir qator xorij mamlakatlari va yurtimizda raqamli banklar tashkil etilishi natijasida masofadan turib xizmat ko‘rsatish tizimidan foydalanuvchilar soni bir necha barobar ortdi. Bu esa mobil ilovalar yordamida mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmat turlari kengayishiga olib keldi. Biz banklarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, mijozlar bazasini kengaytirishda bir qator zamonaviy bank infratuzilmalaridan foydalanishni taklif etdik.

Bundan tashqari, ishlab chiqilgan takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda banklarni transformatsiyalashning keyingi bosqichlarida tatbiq etish innovatsion xizmatlar va ilg‘or texnologiyalarni samarali joriy etish, mijozlar tajribasini yaxshilash, biznes jarayonlarini yanada samarali boshqarish va moliya bozorida raqobat ustunligini mustahkamlash hamda mamlakat bank tizimining jadal rivojlanishiga kuchli turtki beradi.

XULOSA

O‘zbekistonda bank tizimini modernizatsiya qilish jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli yechimlardan foydalanish moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish, moliya muassasalarining raqobatbardoshlik darajasini mustahkamlash, moliyaviy tizimning barqarorligini ta’minlash va makroiqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shishda strategik rol o‘ynaydi. Bank sektorida raqamli transformatsiya orqali xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, bank xizmatlari turini kengaytirish va mijozga yo‘naltirilgan innovatsion biznes modellarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

O‘zbekistonda bank tizimida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonida davlat tomonidan qabul qilingan moliyaviy islohotlar, tarkibiy o‘zgarishlar va dasturlar alohida o‘rin tutadi. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish, elektron to‘lov infratuzilmasini rivojlantirish, moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish, banklarda korporativ boshqaruvning zamonaviy standartlarini joriy etish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) moslashish, davlat ishtirokidagi banklarni bosqichma-bosqich xususiylashtirish va kapitallashtirish darajasini oshirish kabi yo‘nalishlar ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Transformatsiya jarayonida ilg‘or texnologiyalarni samarali tatbiq etish bank amaliyotida xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish, tranzaksiya jarayonlarida shaffoflikni kuchaytirish, kredit portfelini yanada diversifikatsiya qilish, likvidlikni boshqarish bo‘yicha samaradorlikni oshirish hamda mijozlar ishonchini mustahkamlashda muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Shuningdek, masofaviy identifikatsiya, biometrik autentifikatsiya, elektron raqamli imzo, kriptografik himoya, axborot xavfsizligi standartlari kabi texnologiyalarni joriy etish banklarda axborot xavfsizligi tizimini kuchaytirishda ustuvor ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tijorat banklarida innovatsion xizmatlar va texnologiyalarni joriy etish banklarni transformatsiyalashni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kompleks yondashuv va muayyan usullarni talab qiladi. Ya’ni banklarni transformatsiyalashning aniq strategiyasini ishlab chiqish innovatsiyalar uchun maqsadlar, ustuvorliklar va harakat rejalarini belgilashni talab qiladi hamda transformatsiyalash jarayonida quyidagilarni inobatga olish muhim hisoblanadi:

1. Fintex kompaniyalari va innovatsion startaplar bilan strategik hamkorlik aloqalarini rivojlantirish orqali moliyaviy xizmatlar sifati va ko‘lamini oshirish zarur.

2. Bank tizimi xodimlari malakasini oshirish, ularning zamonaviy moliyaviy texnologiyalar, fintech va raqamli moliya sohasi bo‘yicha ilg‘or bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida muntazam malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglar tashkil etish orqali salohiyatini oshirish darkor.

3. Mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlarni rivojlantirishda ma’lumotlar tahlili (Data Analytics) va prognoz modellaridan samarali foydalanish orqali mijozlarning ehtiyoj va istaklarini aniqlash hamda ularga moliyaviy xizmatlar taklif etish maqsadga muvofiq.

4. Banklar tomonidan innovatsion texnologiyalar, xususan, sun'iy intellektni qo'llash orqali mijozlarga individuallashtirilgan xizmatlar taklif etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa mijozlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos xizmatlar taklif etish imkonini yaratadi.

5. Banklar transformatsiya jarayonida kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan birga, mijozlar shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish uchun zamonaviy kiberxavfsizlik yechimlarini qo'llashi kerak.

6. "Raqamli bank"lar sonini oshirish, istiqbolli innovatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va joriy etish, telekommunikatsiya infratuzilmasi va texnik vositalar kompleksini takomillashtirish hamda sotuvning elektron kanallarini rivojlantirish lozim.

7. Banklar uchun dasturiy ta'minot ishlab chiquvchi IT-kompaniyalar tomonidan yaratilayotgan innovatsion loyihalar reytingini yaratish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish darkor.

8. Aholining moliyaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, bank tizimi faoliyati hamda zamonaviy moliyaviy xizmatlar bo'yicha xabardorlik darajasini oshirish maqsadida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish va targ'ibot ishlarini tashkil etish orqali moliyaviy inklyuzivlikni rivojlantirish, bank xizmatlariga bo'lgan talabni rag'batlantirish hamda mijozlar ishonchini mustahkamlash zarur.

9. Mamlakatimizda "raqamli bank"ni rivojlantirish, bank ofislari va filiallariga ketadigan ortiqcha xarajatlarni cheklash maqsadida O'zbekiston bank tizimiga omnikanalli bankingning joriy etilishi bo'yicha xorij tajribasini o'rgangan holda, uni mamlakatimiz bank tizimiga joriy etish taklif qilindi. Omnikanalli banking strategiyasini banklarga qo'llashning afzal tomonlari shundaki, jismoniy va yuridik shaxslarga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini integratsiyalashgan va innovatsiyalarga yondashgan holda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

10. Bank xodimlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida ularning moliyaviy malakasini oshirish, xususan, CFA (Chartered Financial Analyst), ACCA (Association of Chartered Certified Accountants) kabi xalqaro darajadagi sertifikatlariga ega bo'lishlari uchun o'qitish, zamonaviy moliya tizimiga malakali kadrlarni keng jalb qilish hamda ushbu yo'nalishda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilib borish, shuningdek, xodimlarning mehnat faoliyatini reyting tizimi asosida baholab, yuqori natijalarga erishgan xodimni rag'batlantirib borish taklifi ilmiy asoslangan.

11. Transformatsiya jarayonida kiberxavfsizlikni ta'minlash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan birga, banklar mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish uchun zamonaviy kiberxavfsizlik yechimlarini qo'llashi zarur. Mazkur taklif va tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish banklarda innovatsion xizmatlar va ilg'or texnologiyalarni samarali joriy etish, mijozlar tajribasini oshirish, biznes jarayonlarini yanada samarali boshqarish va moliya bozorida raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekistonda banklarni transformatsiyalash jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, investitsiyalarni jalb qilish va global moliya bozorida raqobatdoshlikni oshirish uchun muhimdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc. 03/10.12.2019.1.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЦЕНТР «НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ И
ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА» ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

УМАРОВА МАЛИКА БАХТИЯРОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ТРАНСФОРМАЦИИ
БАНКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора наук (DSc) по экономическим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора наук зарегистрирована под номером B2022.1.DSc/Iqt352 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертационная работа выполнена в Научно-исследовательском центре «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации опубликован на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме) на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyounet.uz).

Научный консультант: Калонов Мухиддин Бахритдинович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Исмоилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, доцент

Жумъев Нодир Хосиятович
доктор экономических наук, профессор

Бердияров Бахриддин Тавашарович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Высшая школа бизнеса и предпринимательства
при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится в 10⁰⁰ часов «10» 07 2025 г. на заседании научного совета №DSc.03/10.12.2019.1.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете Адрес: 100003, город Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 232-43-51, e-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdu@tdiu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер №23). Адрес: 100003, город Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdu@tdiu.uz).

Автореферат диссертации разослан «06» 2025 года.
(протокол реестра № 57 от «07» 2025 года).



С.У. Мехмонов

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

У.В. Гафуров

Секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

С.К. Худойкулов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире процесс трансформации важен для банков с точки зрения повышения их конкурентоспособности, глобализации деятельности и предложения клиентам высококачественных услуг. Глобализация финансовых рынков, развитие цифровых технологий и меняющиеся требования клиентов создают новые возможности для банков. По данным Juniper Research, “к 2026 году 53% населения мира будет иметь доступ к услугам цифрового банкинга; число пользователей вырастет с 2,5 млрд. в 2021 году до более чем 4,2 млрд. человек. При этом разработка процессов цифровой трансформации для эффективной работы банков во время пандемии будет способствовать повышению эффективности цифрового банкинга и стимулировать рост числа пользователей”²³. Кроме того, в ходе трансформации банков актуальными вопросами являются изменение организационной структуры банка, расширение сферы его услуг, внедрение новых видов услуг, предоставление удобного сервиса для населения, совершенствование методологии трансформации банка.

Сегодня в мировой практике проводятся комплексные научные исследования по развитию банковской инфраструктуры с использованием цифровых и инновационных технологий, повышению популярности банковских услуг. В этой связи возникает необходимость проведения научных исследований по совершенствованию теоретических и правовых основ внедрения новых видов услуг в процессе трансформации банков, трансформации банков с государственным участием в рамках реформы банковской системы, совершенствованию законодательных документов, связанных с внедрением современной системы корпоративного управления в банках, повышением уровня капитализации и ресурсной базы банков, а также приведением пруденциальных нормативов, установленных для банков, в соответствие с международными стандартами.

В последние годы в нашей стране реализуются масштабные реформы, направленные на подготовку к приватизации и преобразованию банков с государственной долей. В частности, в Указе Президента Республики Узбекистан определены такие задачи, как “комплексная трансформация коммерческих банков с государственным участием, внедрение современных банковских стандартов, информационных технологий и программных продуктов, продажа на основе выбора государственных акций банков инвесторам, обладающим необходимым опытом и знаниями, а также сокращение доли государства в банковском секторе вместе с реформированием коммерческих банков и предприятий с государственным участием”²⁴. В рамках данного исследования актуальным является проведение

²³Juniper Research “Digital Banking: Banking-as-a-Service, Market Transformation & Forecasts 2021-2026”.

²⁴ Указ Президента Республики Узбекистан от 12 мая 2020 года №УП-5992 “О Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы”.

исследований, направленных на пересмотр и формирование организационной структуры банков с учетом новых требований по повышению прозрачности управления банком, повышению популярности банковских услуг в процессе трансформации, использованию омниканального банкинга для анализа кредитоспособности клиентов, совершенствованию методологии трансформации банков.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Законе Республики Узбекистан от 7 ноября 2019 года №ЗРУ-578 “О платежах и платежных системах”, Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 “О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, от 12 мая 2020 года №УП-5992 “О Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы”, Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 23 марта 2018 года №ПП-3620 “О дополнительных мерах по повышению доступности банковских услуг”, от 9 октября 2019 года №ПП-4487 “О первоочередных мерах по повышению финансовой устойчивости банковского сектора Республики Узбекистан”, от 12 сентября 2017 года №ПП-3270 “О мерах по дальнейшему развитию и повышению устойчивости банковской системы республики”, в Государственной программе Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 года об утверждении стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030” и мерах по ее эффективной реализации, а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий I. «Духовное, нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации²⁵. Исследования по совершенствованию методологии внедрения инновационных технологий для развития банковской инфраструктуры и повышения эффективности банковских услуг в процессе банковской трансформации проводятся рядом ведущих научных центров и престижных высших учебных заведений мира, а также международными финансовыми организациями. Исследования также проводятся World Bank, Bank of America Corporation, JP Morgan, Harvard University (США), Asian Development Bank (Филиппины), Central American Bank for Economic Integration (Гондурас), London School of Economics and

²⁵The International Monetary Fund (IMF), Annual Report on Building a Shared Future (Washington, D.C., April 30, 2018.); Fiedman, B.M. (2001). “Monetary Policy”. International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences. pp. 9976–9984.; “The world’s 100 largest banks”. Standard & Poor’s. April 6, 2018; Basel Committee on Banking Supervision. www.bis.org.; Hubbard, Douglas (2009). The Failure of Risk Management: Why it is Broken and How to Fix It. John Wiley & Sons. p. 46; Yakov Amihud and Haim Mendelson, “Asset Pricing and the Bid-Ask Spread.” Journal of Financial Economics 17, 1986; Muelleg, Jim. “Understanding Financial Liquidity”. Investopedia.com. Investopedia US. Archived from the original on 2 May 2018; International Finance Corporation (IFC), Annual Report on Redefining Development Finance, World Bank Open Data 2018; <https://data.worldbank.org>; <https://www.jpmorgan.com/global>.

